

20-Aprel, 2026-yil

TA'LIM LOYIHALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Panjiyev Nurbek Niyozmuhammedovich

E-mail: nurbek20220@gmail.com

ORCID: 0009-1004-6989-1450

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta'lim loyihalari samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan. Ishda ta'lim loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan omillar, resurslar va strategiyalar batafsil tahlil qilinadi. Muallif, ta'lim loyihalarining samaradorligini oshirish uchun innovatsion usullar, zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv yondashuvlarini qo'llash zarurligini ta'kidlaydi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim loyihalari, samaradorlik, innovatsion usullar, monitoring, natijalar barqarorligi, boshqaruv yondashuvlari.*

Abstract. *This work was developed on the basis of research aimed at improving the effectiveness of educational projects. The work analyzes in detail the factors, resources and strategies necessary for the successful implementation of educational projects. The author emphasizes the need to apply innovative methods, modern technologies and management approaches to improve the effectiveness of educational projects.*

Keywords: *educational projects, efficiency, innovative methods, monitoring, results stability, management approaches.*

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jamiyatning rivojlanishida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Ta'lim tizimi mazkur talabga javob beradigan, mehnat bozorining real ehtiyojlariga moslashgan kadrlarni tayyorlashga qaratilgan bo‘lishi zarur. Shu ma'noda, ta'lim loyihalarini amalga oshirish va ularning samaradorligini oshirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ta'lim loyihalari samaradorligini oshirish orqali kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash, ta'lim tizimining barqarorligi va innovatsion rivojlanishini ta'minlash imkoniyatlari paydo bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida ta'lim sohasini rivojlantirish borasida bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan Ushbu qonun loyihalar orqali ta'lim sifatini oshirish, malakali kadrlar tayyorlash va ta'lim jarayonini xalqaro standartlarga moslashtirishga yo‘naltirilgan.

Ta'lim tizimi jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirish, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va xalqaro darajada raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim o‘rin egallaydi. Globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan bir paytda, davlatlar o‘z ta'lim tizimlarini zamon talablariga moslashtirish uchun izchil va chuqur islohotlarni amalga oshirmoqda. Ta'lim jarayonining samaradorligi va sifatini ta'minlash, o‘quvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish va ularning mehnat bozorida talab qilinadigan kadrlar

sifatida shakllanishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunday vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun ta'lim loyihalarini to'g'ri tashkil etish va ularni samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim loyihalarining samaradorligini oshirish masalasi O'zbekiston olimlari tomonidan ham faol o'rganilayotgan dolzarb mavzudir. Xususan, Ergashev Z. (2021) o'zining tadqiqotlarida ta'lim loyihalarining boshqaruvida innovatsion usullarning ahamiyatini ko'rsatib berdi

Jack C. Richards va Theodore S. Rodgers (2021) kabi olimlarning izlanishlari ta'limda loyihalar yondashuvini samarali qo'llashning metodologik asoslarini o'rganishga bag'ishlangan. Ularning izlanishlarida loyiha samaradorligi asosan ta'lim jarayonida aniq maqsadlar qo'yish, o'quv materiallarini puxta ishlab chiqish va loyihaning amaliy natijalarini baholash orqali oshirilishi mumkinligi ta'kidlanadi. Richards va Rodgersning yondashuvlari zamonaviy ta'lim loyihalari boshqaruvining asosiy tamoyillarini yaratishda muhim ilmiy asoslarga ega.

Bundan tashqari, Sandra J. Savignon (2022) va Larsen-Freeman (2023) kabi olimlar o'z tadqiqotlarida ta'lim loyihalarining samaradorligini oshirish uchun kommunikativ yondashuvlardan foydalanishni ta'kidlab o'tganlar

Bundan tashqari, Karimov A. (2018) o'z tadqiqotida o'rta texnik maktablarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini kengaytirish masalalarini ko'rib chiqdi va O'zbekistonda kasb-hunar ta'limi tizimiga zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar berdi. U o'quv jarayonida raqamli platformalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ayniqsa, texnik yo'nalishdagi o'quvchilarni malakali tayyorlashda katta samara keltirishini ta'kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish, kontent tahlili va ilmiy-abstraksiya usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini raqamli ta'lim, loyiha asosida o'qitish, o'quvchi agentligi, raqamli ko'nikmalar va ta'lim boshqaruvi bo'yicha xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda ilmiy manbalar tashkil etdi. Xususan, raqamli texnologiyalarning ta'limdagi samarasi ularning pedagogik integratsiyasi, o'qituvchi kompetensiyasi va sinf ichidagi maqsadli qo'llanishiga bog'liqligi haqidagi yondashuvlar mazkur maqolaning metodologik tayanch nuqtalaridan biri bo'ldi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda ta'lim loyihalari samaradorligini oshirishning quyidagi muhim omillarini ajratib ko'rsatish mumkin:

Ta'lim loyihalarida raqamli texnologiyalarni kengaytirish orqali samaradorlikni oshirishga erishilmoqda. Raqamli texnologiyalar, jumladan, onlayn o'quv platformalari va virtual ta'lim resurslari, masofaviy ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Ushbu yondashuv O'zbekiston ta'lim loyihalarini global darajada raqobatbardosh qilishga yordam beradi va isbotlaydi.

“O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS VA INNOVATSION JARAYONLAR JURNALI”

20-Aprel, 2026-yil

Ta'lim loyihalarini moliyalashtirish davlat byudjeti, xalqaro grantlar, xususiy sektor mablag'lari va donorlik jamg'armalari hisobidan amalga oshirilmoqda. Bu esa, loyihalarni moliyaviy jihatdan mustahkamlaydi va ularni barqaror amalga oshirishga yordam beradi.

Ta'lim loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ularning monitoringi va natijalarni baholash tizimi muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda monitoring tizimini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan ishlar natijasida ta'lim loyihalari yanada samarali va sifatli amalga oshirilmoqda.

Mahalliy sharoitlarga moslashuvchan yondashuv orqali loyihalar o‘z samaradorligini oshiradi, chunki ular o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun qulay muhit yaratadi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda ta'lim loyihalarining samaradorligini oshirish jarayoni ko‘p qirrali va kompleks yondashuvni talab qiladi.


1-jadval. O'zbekistonda ta'lim loyihalarining samaradorligi tahlili

Loyiha turi	Maqsad	Yillik mablag' (mln USD)	Yillik qamrov (ming o'quvchi)
Davlat moliyalashtirilgan	Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va yangi maktablar qurish	2300	1200
Xususiy sektor	Kasbiy o'quv kurslari va maxsus ta'lim markazlari tashkil qilish	1200	800
Nodavlat tashkilotlar	Kam ta'minlangan va yetim o'quvchilar uchun ta'lim imkoniyatlari	800	500
Xalqaro tashkilotlar	Xalqaro standartlarga asoslangan ta'lim dasturlari joriy etish	580	1000

Manba: stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Shunday qilib, xususiy sektor va nodavlat tashkilotlari tomonidan moliyalashtirilgan ta'lim loyihalari O‘zbekiston ta'lim tizimining qamrovini oshirish va uning sifatini yaxshilashda sezilarli darajada hissa qo‘shmoqda. Bu kabi loyihalar orqali nafaqat ta'lim olish imkoniyatlari kengaymoqda, balki ta'limning sifat ko‘rsatkichlari ham yaxshilanmoqda (Davlat statistika qo‘mitasi, 2022).

1-rasmdagi diagramma O‘zbekistonda turli ta'lim loyihalariga yillik ajratilayotgan mablag' miqdorini ko‘rsatadi. Diagrammada davlat, xususiy sektor, nodavlat tashkilotlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar ajratilgan. Davlat loyihalari uchun eng katta mablag' ajratilib, yiliga 2,3 milliard AQSh dollarini tashkil etadi, bu esa mamlakat ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va yangi maktablar qurish ishlarini keng ko‘lamda amalga oshirish uchun ajratilmoqda. Xalqaro tashkilotlar tomonidan ajratiladigan mablag' 580 million dollar bo‘lib, bu xalqaro hamjamiyatning ta'lim sohasiga qaratilgan texnik va moliyaviy yordamining muhim qismi hisoblanadi.




1-rasm. Ta'lim loyihalari yillik moliyalashtirish miqdori

Manba: stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Xususiy sektor yiliga 1,2 milliard dollar miqdorida mablag' ajratadi va bu moliyalashtirish asosan kasbiy o'quv kurslari va maxsus o'quv markazlarini tashkil etishga yo'naltirilgan. Nodavlat tashkilotlar yillik 800 million dollar bilan kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar uchun ta'lim imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlaydi

Diagramma 2 O'zbekistonda turli ta'lim loyihalarining yillik qamrovga ko'ra



2-rasm. O'zbekistonda ta'lim loyihalari yillik qamroviga ko'ra taqsimoti

Manba: stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

taqsimotini tasvirlaydi. Bu diagrammada davlat, xususiy sektor, nodavlat tashkilotlar va

“O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS VA INNOVATSION JARAYONLAR JURNALI”

20-Aprel, 2026-yil

xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan loyihalar yillik qamrov darajasi bo‘yicha tasniflangan. Davlat loyihalari eng katta qamrovga ega bo‘lib, yiliga taxminan 1,2 million o‘quvchini qamrab oladi, chunki bu loyihalar butun mamlakat bo‘ylab keng ko‘lamda amalga oshiriladi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta‘lim loyihalari samaradorligini tahlil qilishda, ayniqsa, oxirgi yillarda kiritilgan resurslar va erishilgan natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash juda muhim. So‘nggi yillarda mamlakatda ta‘lim sohasiga katta e‘tibor qaratilib, davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag‘lar sezilarli darajada oshirildi. Masalan, 2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi doirasida ta‘lim sohasiga qariyb 2 trillion so‘m yo‘naltirildi. Bu mablag‘ maktablar infratuzilmasini yaxshilash, ta‘lim sifatini oshirish va yangi texnologiyalarni joriy qilishga sarflandi. Xususan, hududlarda innovatsion markazlar sonini oshirish, yangi texnologiyalar bilan jihozlash va ilmiy-tadqiqot ishlari uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratish strategiyaning asosiy vazifalari qatoriga kiradi. Shu orqali texnologik markazlar soni 494 taga yetkazilishi, mahalliy innovatsion startaplar sonini 1,437 taga oshirish belgilangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotning asosiy ilmiy va amaliy yangiliklari ta‘lim loyihalarining samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishga asoslangan. Avvalo, tadqiqotda ta‘lim loyihalariga raqamli texnologiyalarni kiritish orqali o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Raqamli texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning ta‘lim olish jarayonini interaktiv qilish, ularning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish va shu orqali ta‘lim sifatini yangi darajaga olib chiqish imkoniyatlari aniqlandi.

Bundan tashqari, tadqiqotda ta‘lim loyihalarini moliyalashtirish uchun turli moliyaviy manbalar – davlat mablag‘lari, xususiy sektor ishtiroki va xalqaro grantlarni samarali uyg‘unlashtirish orqali barqaror rivojlanishni ta‘minlashga oid tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv ta‘lim loyihalarining uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan moliyaviy asoslarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Moliyalashtirishning bu usuli loyihalarni uzoq muddatli moliyaviy qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi va ularning natijadorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Uchinchidan, ta‘lim loyihalarida monitoring va baholash tizimining o‘rni tadqiqot davomida alohida e‘tibor qaratilgan masalalardan biri bo‘ldi. Samarali monitoring va baholash tizimini ishlab chiqish loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta‘minlashda va o‘z vaqtida o‘zgarishlar kiritishda yordam beradi. Bu tizim orqali ta‘lim loyihalarining har bir bosqichidagi natijalar tahlil qilinadi va zarur bo‘lganda loyihalarni yanada samarali yo‘nalishlarga o‘zgartirishga imkon beradi.

To‘rtinchidan, tadqiqot O‘zbekiston ta‘lim tizimining o‘ziga xos ehtiyojlariga moslashuvchan yondashuvlarni joriy etishga qaratildi.

Bu yondashuvlar nafaqat hozirgi loyihalarning natijadorligini oshiradi, balki kelajakda ham innovatsion va raqobatbardosh ta‘lim loyihalarini yaratishga xizmat qiladi.

“O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS VA INNOVATSION JARAYONLAR JURNALI”

20-Aprel, 2026-yil

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori, “Ta’lim xizmatlarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”, VMQ-1442-son, 03.04.2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, “Ta’lim va kadrlar tayyorlash to‘g‘risidagi qaror”, VMQ-253-son, 11.02.2020.
3. Ergashev, Z. (2021). "O‘zbekistonda ta'lim loyihalarining boshqaruvida innovatsion usullarning ahamiyati." Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti.
4. Karimov, A. (2018). "Ta'lim loyihalarini raqamli texnologiyalar yordamida samarali tashkil etish masalalari." Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.
5. Jo‘raev, M. (2019). "Ta'lim muassasalarini moliyalashtirish mexanizmlari." Toshkent: Xalqaro hamkorlik va moliyaviy rivojlanish markazi.
6. Arxangelskiy, S.I., Babanskiy, Yu.K. va boshqalar (2005). “Pedagogika: Teoriya va amaliyot”. Moskva: O‘quv nashri. (Rus tilidan tarjima qilingan).
7. World Bank. (2021). Learning Poverty Report: Global Learning Assessment. Washington, D.C.: World Bank.
8. UNICEF. (2022). The State of the World's Children 2022: Education in the Digital Age. UNICEF Publications.